

**TISH QATTIQ TO'QIMALARINI CHARXLASHDA XAVFSIZLIK
QOIDALARI, XATO VA ASORATLAR**

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti

Stomatologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Salohiddinova E'zoza

Annotatsiya: Ushbu maqolada tish qattiq to'qimalarini charxlash jarayonida bajarilishi lozim bo'lgan xavfsizlik qoidalari, keng uchraydigan xatolar va ularning kelib chiqadigan asoratlari yoritilgan. Borlarni to'g'ri tanlash, sovitishdan foydalanish, yumshoq to'qimalarni himoya qilish kabi muhim talablar tushuntirilgan. Shuningdek noto'g'ri preparatsiya natijasida yuzaga keladigan sezgirlik, pulpa shikastlanishi va boshqa klinik muammolar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: xavfsizlik qoidalari, sovitish tizimi, klinik xatolar, asoratlar, sezgirlik, pulpa shikastlanishi, perforasiya, infeksiya,

Tishlarni charxlashda xavfsizlik qoidalari va texnikasi. Shaxsiy himoya vositalari: qo'lqop, niqob va himoya ko'zoynagidan foydalanish. Tishlarni charxlash paytida stomatologlar og'iz, burun va ko'zga infeksiya yoki jarohatga olib kelishi mumkin bo'lgan mayda zarrachalar, chang va suyuqlik sachrashidan himoya qilish uchun niqob ko'zoynak taqadilar. Shuningdek, ko'zoynak ko'zni muolajada ishlatiladigan maxsus lampalarning ultrabinafsha va infraqizil nurlarining zararli ta'siridan, kimyoviy eritmalar tushishidan himoya qiladi. Niqob esa ham bemorni, ham havo-tomchi yo'li bilan yuqadigan infeksiyalardan hamda allergiya yuqadigan infeksiyalardan hamda allergiya kelib chiqishidan himoya qiladi. Dezinfeksiya va sterilizatsiya. Barcha asboblarni muntazam ravishda sterilikka rioya qilgan holda ishlov berilishi kerak. Borlarni dastakka ishinchi mahkamlash va og'iz bo'shlig'ida tishni charxlashdan oldin, ishlatib ko'rish, mustahkam fiksatsiyalanganligiga ishonch hosil qilish kerak. XATOLIKLAR. NEKROEKTOMIYANI YETARLI DARAJADA BAJARMASLIK. Karoiz bo'shliqni charxlashda tishlarning

nekrozga uchragan, patologik o'zgargan to'qimalrni olib tashlash kerak. Yaxshi tozalanmagan yumshagan dentin qismlarining infeksiyalanishiga va ikkilamchi karies yoki oulpaning yallig'lanishi-pulpit rivojlanishiga olib keladi. PULPA SHIKASTLANISHI. Pulpa kuyishi yoki pulpa nekrozi termik ta'sir natijasida, ya'ni chuqur kariesni yetarli darajada sovutmasdan (suv yoki havo) charxlashda tish to'qimalarining haddan tashqari qizishi natijasida kelib chiqadi. PERFORATSIYA. Karies bo'shliq devorining pervoratsiyasi-travmatik charxlaganda va karies bo'shlig'I bilan tish toji yoki tishning umumiy o'qiga nisbatan not'g'ri baholaganda yuzaga keladi. Ko'pincha bu kontakt yuzalarda tish bo'yni yaqinida kuzatiladi. Bunda odatda milk shikastlanadi, bu og'riq va bir oz qon ketishi bilan kechadi. QO'SHNI TISHLARNI SHIKASTLASH. Qo'shni tishlarning bor bilan shikastlanishi tishlarning kontakt yuzalarida joylashgan karioz bo'shliqlarni charxlashda yuzaga kelishi mumkin. Qo'shni bo'shliqqa tutashgan tish qattiq to'qimalrining shikastlanish darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Emal yuza qatlamining kichik nuqsonidan uning butunlay yo'qligigacha. Kichik emal nuqsonlari ftorlak yoki boshqa ftorli(remineralizatsiyalovchi)preparatlar bilan ishlov beriladi. Bunday shikastlanishlar kompozision materiallarining nur bilan qotuvchi adgeziv tizimlari bilan yopilganda juda yaxshi samaraga erishiladi. MILK QIRRASINING SHIKASTLANISHI. Milk qirrasining shikastlanishi tishlarning kontakt yuzalarida va bo'yin sohasida joykashgan karioz bo'shliqlarni charxlashda yuzaga keladi. Bunda milkda og'riq va milkdan qon ketishi kuzatiladi. Qon ketishi 3% li vodorod peroksid yoki boshqa qon to'xtatuvchi eritmaga ho'llangan paxta bilan to'xtatiladi. PLOMBALASHDA VUJUDGA KELADIGAN XATOLAR. Ajratuvchi taglikni noto'g'ri qo'yish. Plomba karioz bo'shliq tubiga qo'yilganda, uning tarkibidagi plomba materiallari ko'pincha pulpaga ham zararli, ham qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun plombaning salbiy ta'sirini oldini olish uchun ajratuvchi tagliklarni qo'yish kerak. PRIKUSNI KO'TARIB QO'YISH. Agar plomba ortiqcha bo'lsa, tishga ortiqcha yuk tushadi: jag'lar jipslashganda tish qarama-qarshi jag' hosil qiladigan kuchning qo'yilish nuqtasiga aylanadi. Bu esa tishning surunkali shikastlanishiga, travmatik pulpit va periodontit

rivojlanishiga olib keladi. **KONTAKT PUNKTINI YARATMASLIK.** Tishlar o'rtasida ularning yon yuzalari bir-biriga tegib turadigan kontakt nuqtasining yo'qligi ovqatning to'planishiga, milk kasalliklariga va yuqori sezuvchanlikka olib keladi. Uni tiklash uchun tish shifokori maxsus materiallar va usullardan masalan, klin, matritsalaridan foydalanib, to'g'ri shaklini va tishlar o'rtasidagi zich aloqani tiklaydi. **ASORATLAR.** Davolashdan keyin vujudga keladigan asoratlar. Pulpaning yallig'lanishi va nekroz. Kariesni davolashdan keyin pulpaning yallig'lanishi va nekrozi shifokorning xatolari yoki gigiena qoidalariga rioya qilmaslik natijasida yuzaga keladi. Yallig'lanish davolanmasa, pulpaning nekroziga olib kelishi mumkin. Nekroz ko'pincha simptomtsiz o'tadi va pulpani olib tashlash kanallarni plombalash kabi davolashni talab qiladi. **PAPILLIT.** Kariesni davolashdan keyingi papillit plombalashdagi xatoliklar natijasida, ya'ni milkning plomba materiali bilan jarohatlanishi, plombaning osilib yurgan qirrasi, karies to'qimasining to'liq olib tashlanmasligi oqibatida yuzaga kelishi mumkin. **PLOMBANING SINISHI, TUSHIB QOLISHI.** Agar plomba shifokorning xatosi tufayli kariesni davolashdan keyin singan yoki tushib ketgan bo'lsa, bu tish bo'shlig'ining sifatsiz qurilishi, zararlangan to'qimalarning olib tashlanmasligi yoki plomba materiallarining yomon yopishishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Xulosa

Tish qattiq to'qimalarini charxlash jarayonining muvaffaqiyati asosan shifokorning ehtiyotkorligi va texnik talablarni to'lqi bajarishga bog'liq. Jarayon vaqtida aniq harakat qilish, ishlatiladigan asboblarni to'g'ri tanlash hamda tish to'qimalrining anatomic tuzilishini hisobga olish bemorning kelajakdagi qulayligi va davolash natijasini yaxshilaydi. Agar bu bosqichga yetarli e'tibor berilmasa, tishda ortiqcha sezgirlik, pulpa zararlanishi yoki yoki protezning noto'g'ri o'tirishi kabi muammolar kelib chiqishi mumkin. Shuning uchun preparatsiya jarayoni har doim ilmiy yondashuv va yuqori darajadagi nazorat bilan amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Preklinik restavratsion stomatologiya. Toshkent2022.
2. Stomatologiya kursidan o'quv qo'llanma. G.R.Shukurova, F.X.Yakubova.